

**BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA HARBIY ASIRLARNING
TURKISTON O‘LKASIGA JOYLASHTIRILISHI VA ULARNING AHVOLI**

Oralov Dostonbek Rustam o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

dostonbekoralov37@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birinchi jahon urushi davrida harbiy asirlarning Turkiston hududiga olib kelinishi, ularning joylashtirilishi hamda ularga nisbatan olib borilgan siyosat va munosabatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasiga keltirilgan harbiy asirlarning mehnat faoliyati, yashash sharoitlari hamda mahalliy aholi bilan bo‘lgan aloqalari yoritib berilgan. Shuningdek, asirlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri va ularning mintaqadagi faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Soldatlar, Buxoro amirligi, Turkiston, qochqin, Chorjo‘y, rus harbiy qismlari, mahbuslar, asirlar.

**THE PLACEMENT OF PRISONERS OF WAR IN THE TURKESTAN
REGION DURING THE FIRST WORLD WAR AND THEIR CONDITION**

Abstract: The transfer of prisoners of war to the territory of Turkestan during the First World War, its documentation, and the political and economic analysis carried out against them. The study sheds light on the labor activities, living conditions, and relations with the population of prisoners of war brought to the Turkestan region by the Russian Empire. The impact of the prisoners on socio-economic life and their activities in the report are analyzed based on historical sources.

Keywords: Soldiers, Bukhara Emirate, Turkestan, refugees, Charjoy, Russian military units, prisoners, captives.

XX asr boshlarida nufuzli davlatlar o'rtasida dunyoni qayta taqsimlab, egalik qilish maqsadida boshlangan o'zaro kurash oxir-oqibatda keng quloqch yoygan birinchi jahon urushiga olib keldi. Unda 1,5 milliard aholini qamrab olgan 38 ta davlat qatnashdi. Ular bir-biriga dushman ikki guruhni tashkil qilganlar. Bular: bir tomonda Angliya, Fransiya va Rossiya, ikkinchi tomonda esa Germaniya, Avstriya va Vengriya boshchiligida tuzilgan harbiy ittifoqlardir. So‘nggi yuz yil ichida Birinchi jahon urushi Turkistondagi harbiy asirlarining hayoti haqida tadqiqotlar na Sovet davri, na Markaziy Osiyolik tarixchilar tomonidan olib borilgan. Rossiya hududida harbiy asirlarni saqlash mamlakat markaziy hududlari uchun ko‘pchilikni tashkil etardi. Shu boisdan harbiy asirlarni mamlakatning turli chekkalariga ham tarqatish hukumat

tomonidan ma'qul ko'rdi. Mamlakatning Sharqiy o'lkalari Sibir, Turkiston, Ural va boshqa dehqonchilik tumanlariga joylashtirish masalasi ko'rdi. Rossiya hukumati milliy tamoyilni hisobga olishga harakat qildi. Mamlakat Bosh shtab boshqarmasining 1914-yildagi buyrug'iga asosan nemislar, avstriyaliklar, vengerlar va asirga olingan slavyan xalqlarini Turkiston o'lkasiga joylashtirilishga kelishildi. Shuni ta'kidlash kerakki, Har bir millat alohida lagerlarga joylashtirish kerakligi ta'kidlangan bo'lsada, ammo alohida mehnat lagerlari yaratilmay umumiy harbiy kazarmalar bunyod etildi. Turkistonlik harbiy asirlar Turkiston o'lkasiga joylashtirilmadi. Butun Rossiya bo'ylab maxbuslarni saqlash uchun 400 dan ortiq lagerlar tashkil etildi. Dastavval Yevropada alanga olgan urush Uzoq va Yaqin Sharq, Afrika, Atlantika, Tinch va Hind okeanlari buylab tarqaldi. Urush harakatlarida 1914-yili 480 ta diviziya qatnashgan bo'lsa, 1917-yilda, 889 taga etdi.

Chor Rossiyasining urushda ketma-ket mag'lubiyatga uchrab, o'n minglab askarlari o'ldirildi va yarador qilindi. Urushning aks sadosi Turkiston o'lkasigacha etib kelib, busiz ham og'ir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirib yuborgan Rossiya urush bahonasida, mustamlakachilik siyosati va zulmini kuchaytirib yubordi. Xususan, o'lkadan Rossiyaga 41 mln pud paxta, 3 mln pud paxta yog'i, 200 mln pud sovun, 70 ming bosh ot, 1279 bosh tuya, 300 ming pud go'sht, 474 ming pud baliq, 270 arava, 1344 o'tov, kup miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari, quruq mevalar olib ketildi. 1915-yilning o'zida faqat Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan bir million bosh qo'y jo'natildi. Natijada o'lkamizda oziq-ovqat, kiyim-kechak, gazlama va qurilish jihozlarning narxi juda oshib ketdi.

XIX asrning oxirida - XX asrning boshlarida faqat Turkiston emas, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligidan zo'rlik bilan tortib olingan hududlar ko'chirib keltirilgan rus aholini, 1914-yil 28-iyunda podsho tomonidan tasdiqlangan qonunga ko'ra Turkistonga "moddiy ta'minlangan, eng kam 1000 rubl turadigan mulkka ega nasroniylargina ko'chishi mumkin" edi. Tarixchi olim, professor R.Murtazaeva XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Turkiston mintaqasiga Rossiya milliy rayonlaridan 20-21 ming arman, 2 ming gruzin, 9-10 ming polyak, 8 ming nemis, 5 ming Rossiya va xorijiy davlatlardan kelgan yahudiylar, 1000 -1200 ta litvaliklar, 6001000 nafar greklar, 400 ming slavyanlar (rus, ukrain, belorus) ko'chib kelganligini qayd etgan. Shuningdek, mintaqada qoshg'ar, dungan, taranchi, fors, ozarbayjon, kurd, beluj, arab, afg'on, hazar, g'iloniy, Buxoro yahudiylari, tatar, boshqird kabi millatlar oz sonli emasdi. Hatto, fransuz va shvetsar (80-100ta), italyanlar (60-70ta), inglizlar (50-60ta) Turkistonda yashashgan. 1920-yillarga kelib, Turkiston mintaqasida 60 ga yaqin millat va elatlar istiqomat qilgan bo'lib, ular orasida Osiyo va Yevropa davlatlaridan ko'chgan ajnabiylar ham ancha edi. Albatta, ushbu ro'yxatda Buxoro amirligi rus manzilgohlarida istiqomat qilgan aholining milliy-etnik tarkibi to'liq ko'rsatilmagan. Amirlik hududida rus manzilgohlari Turkiston general-gubernatorligi viloyatlariga

nisbatan kechroq, XIX asr oxiri–XX asr boshlarida tashkil topganligi inobatga olinsa, bu boradagi fikrimiz yanada oydinlashadi. Lekin o‘sha yilning 1-avgustida boshlangan birinchi jahon urushi Rossiya imperiyasining aholini ko‘chirish siyosatini Rossiyadan Turkistonga va Dasht o‘lkasiga aholini ko‘chib kelish amaliyotini keskin o‘zgartirdi. Rus harbiy ma‘muriyati dastlab Turkistonda asirlarni faqat yirik shaharlar va temir yo‘llardan olis hududlarga joylashtirishni maqsad qilgan edi. Biroq, harbiy asirlarning ko‘pligi va maxsus kazarmalarning yo‘qligi ularni rejalarini o‘zgartirishga majbur qildi. Bundan tashqari, mahbuslarni joylashtirish uchun umuman joy yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. Shuning uchun harbiy asirlarning birinchi partiyalari bevosita shaharlarga joylashtirildi. Turkistonga birinchi harbiy asirlar 1914-yil sentabrda kela boshladi. Sharqiy frontdagi urushlardan so‘ng darhol Turkistonga turli millatlarga mansub 50 mingga yaqin harbiy asirlar etib keldi, ularning aksariyati Toshkentda joylashgan edi. Dastlab, ularni joylashtirish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmadi. Buning uchun frontga ketgan Turkiston harbiy okrugi (TurkVO) bo‘linmalarining kazarmalari berildi. Ammo Turkistonda bepul binolarning keskin tanqisligi bor edi. 1915- yil boshida Kattaqo‘rg‘onda harbiy asirlardan tashqari yana 1200 kishini joylashtirishni rejalashtirgan edilar, ammo shahar atigi 600 nafarini qabul qila olardi, Samarqandda esa 1000 nafar harbiy asirdan asirlarni joylashtirish uchun joylar bor edi. Vaziyatdan chiqish uchun ular binolarga ikkinchi qavatli yotoqlarni o‘rnatishni boshladilar. Chorjuyda saqlanishi kerak bo‘lgan 600 mahbus Amudaryo flotiliyasining barjalariga joylashtirildi. Turkiston o‘lkasining Sirdaryo viloyatida Qozalinskda boshlang‘ich maktab binosi asirga olingan 100 nafar ofitserga mo‘ljallangan, Perovskiy boshlang‘ich maktabi binosi Perovsk yaqinidagi lagerdagi harbiy asirlar uchun kasalxona sifatida bo‘shatilgan, imtihonlar muddatidan oldin o‘tkazildi va 40 nafar bola yozgi oromgohga yuborildi.

1915-yil iyuniga kelib, rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mintaqadagi harbiy asirlar soni 148 ming kishidan oshdi. Ular shoshilinch ravishda TurkVO ning 37 ta maxsus qurilgan lagerlari, kazarmalari va boshqa binolariga joylashtirildi va odamlarni joylashtirish uchun zudlik bilan moslashtirildi. Masalan, birgina Kaspiyorti viloyatiga 1915-yilda 27027 kishi; 1916 yilda - 9826 kishi ko‘chib keldi. Shularning uchdan ikki qismi hech qanday ko‘chiruvchilik hujjatlariga ega bo‘lishmagan. 1915-yildan boshlab esa xorijiy harbiy asirlarni ham joylashtirish uchun foydalanilgan. Bu esa tub aholi uchun ham juda og‘ir bo‘lgan. G.Vyurtser o‘z asarida murojaat qilgan Amerika missiyasi rahbari Sterlingning ma‘lumotlariga ko‘ra, 1915-yilda Turkistonda Avstriya-Vengriyadan 82425, Germaniyadan 3812 nafar mahbus bo‘lgan. 1914-1915-yillar oxirida harbiy asirlar bilan birga. Turkistonga 300-350 “fuqarolik mahbuslar” yoki “harbiy unvonsiz mahbuslar” keltirildi. Bular Avstriya-Vengriya va Germaniyaning harbiy yoshdagi fuqarolari bo‘lib, rus qo‘shinlari tomonidan dushman hududlaridan olib ketilgan. Bir necha oy ular mahalliy aholidan ajratilgan bo‘lsada,

kelajakda ularning ko'plari biroz erkinlikdan bahramand bo'lishni boshladilar. Taxminan 1916-yil o'rtalaridan boshlab "fuqarolik mahbuslar" ning ko'pchiligi belgilangan joylarda politsiya nazorati ostida yashash va chiqish huquqsiz yashash majburiyati bilan qo'riqxonadan ozod qilindi. Shu sababli, vaqtning katta qismi, ayniqsa ishlaydiganlar, yashash joylaridan tashqarida o'tkazildi. 1915-yil iyulidan mintaqaga qochqinlar kela boshladi. 1915-yil oxiriga kelib Turkistonga Polsha, Boltiqbo'yi va boshqa viloyatlardan kelgan 70 mingga yaqin qochqinlar joylashtirildi. Umuman, Turkistonda 1916-yil 1-yanvarigacha tashkil qilingan rus posyolkalari va ulardagi aholining soni haqida kundagi raqamlardan tasavvur etish mumkin. Keltirilgan raqamlarga temiryo'l stansiyalari yonidagi posyolkalar, baliqchi posyolkalari va harbiy garnizonlardagi rus aholining birinchi jahon urushi boshlanganidan keyin o'lkaga keltirilgan harbiy asirlarning va qochoqdarning soni kirmagan.

Boltiqbo'yi, Polsha va boshqa joylardan ko'chirilgan 70 ming kishi ham Turkistonga joylashtirildi. Ko'chirib keltirilganlar nemislar, avstriyaliklar, vengerlar, polyaklar, chexlar, latishlar, slovaklar va boshqa millatlardan tashkil topgan edi. Har tomonlama shilingan tub aholi qulog'igacha qarzgacha botib, xonavayron bo'ldi. 1916-yilgi ma'lumotga ko'ra, dehqonlarning buynidagi qarz o'z zamonasi uchun juda katta mablag' - 156,7 mln so'm hisoblangan. 1914 -yil avgustning oxiri - sentabrning boshida Rossiyaning Harbiy va Ichki ishlar vazirliklari Turkiston ma'muriyati bilan birgalikda Avstro-Vengriya, Germaniya armiyalariga mansub harbiy asirlarni Toshkent, Samarqand, Skobelev, Ashxobad, Qo'qon, Andijonda joylashtirish va asirlar tarafidan bajariladigan ishlarning hajmi, turlari rejalashtirilgan edi. Jahon urushi yillarida nafaqat Turkiston aholisi, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun hayot kechirish haddan tashqari og'irlashib ketdi, chunki bu davrda markaziy guberniyalardan ko'chib kelayotganlarning oqimi bilan Rossiyaning G'arbiy rayonlaridan kelayotgan 70 ming qochoqlarning oqimi qo'shib ketdi. Bundan tashqari, 1914-yil sentabridayoq Turkistonga, ayniqsa, Samarqand, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariga Avstro-Vengriya, Germaniya, Polsha, Serbiya armiyalarida va chexlar, slovaklarning qo'shinlariga mansub asirlar jo'natila boshladi. Turkiya armiyasining Sibir lagerlaridan qochgan harbiy asirlari kela boshladi.

1916-yil oxirida qayta evakuatsiya boshlandi. Qochqinlarga yordam berish bilan shug'ullangan Tatyana qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 1916-yil 1-mayda ularning soni 59,4 ming kishini, 1916-yil 1-iyunda esa 15,9 ming kishini tashkil etgan. Natijada mintaqada 7-8 mingga yaqin qochqin qolgan. Turkistonda mahbuslarning to'planishi, so'ngra qochqinlarning kelishi mahalliy aholining moddiy ahvolini sezilarli darajada yomonlashtirib, oziq-ovqat va uy-joy inqiroziga olib keldi. 1916-yil boshiga kelib mintaqadagi harbiy asirlarning umumiy soni 200 ming kishiga yetdi.

Ularning soni ular joylashgan shaharlar aholisidan oshib keta boshladi. Viloyat

hokimligi bundan nihoyatda xavotirda edi, agar biror tartibsizlik yuzaga kelsa, bu vaziyatni yanada og'irlashtiradi, deb hisobladi. Turkistonga bunchalik salmoqli sondagi harbiy asirlarning yuborilishiga quyidagilar sabab bo'ldi: hududning uzoqligi va u erdan qochishning qiyinligi. Oziq-ovqat narxi ham hisobga olindi. Biroq mintaqadagi shunchalik mahbuslarni oziq-ovqat bilan ta'minlash kutilganidan ham qiyinroq bo'lib chiqdi. Ayniqsa, un etishmasligi va harbiy asirlarni odatdagi toza bug'doy nonlari bilan boqishning iloji yo'qligi sezildi. Ular bug'doyning ozgina aralashmasi bilan makkajo'xori unidan non pishirishlari kerak edi.

Bunday noodatiy oziq-ovqat ko'pincha oshqozon kasalliklarini keltirib chiqardi va o'limning oshishi uchun shart bo'lib xizmat qildi. Guvohlarning so'zlariga ko'ra, kam ovqatlanish va qiyin iqlim Turkistonga uzoq safarda allaqachon zaiflashgan inson tanasining yakuniy zaiflashishiga olib keldi, yuqumli kasalliklar uchun qulay muhitga aylandi va tibbiy yordam, o'z navbatida, etarli emas va samarasiz edi. Mahkumlar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri quyosh urishi edi. Lagerlarda epidemiyalar avj oldi. Lagerda yuqumli kasalliklar avj olgan edi. Odamlar antisaniitariya sharoitlari va ochlikdan nobud bo'lishdi, Markaziy Osiyoning o'rganilmagan og'ir iqlimi og'ir edi. Tekshiruv komissiyalari yoki Qizil Xoch vakillari tomonidan lagerlarga tashrif buyurganlarida, mahbuslarning yomon ovqat haqida shikoyatlari juda tez-tez bo'lgan. Shunday qilib, 1915-yil kuzida Turkiston va Sibir lagerlarini ko'zdan kechirgan Xalqaro Qizil Xoch vakillari Tormeer va Forrierning fikricha, mahbuslarning ovqati qoniqarsiz bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori F.V. Martson aholining noroziligi, iqtisodiy ahvolning yomonlashuvi, qamoqda saqlashning o'ta og'ir sharoitlari (boshqalar qatorida iqlim xususiyatlari bilan bog'liq) va qochishlar sonining tobora ortib borayotganiga ishora qilib, Turkistondan harbiy asirlarni olib chiqishni so'rab murojaat qildi, chunki mahbuslarni qo'riqlaydigan hech kim yo'q edi. Muntazam bo'linmalar frontga ketdi. Harbiy asirlarni saqlash va davolash masalalari 1907-yilda deyarli barcha urush qatnashchilari tomonidan imzolangan Gaaga konventsiyasi bilan tartibga solingan. Rossiya harbiy asirlar tog'risidagi o'z Nizomini qabul qildi, u Rossiyada harbiy asirlar bilan shug'ullanadigan alohida muassasa yo'qligiga qaramay, Gaaga konventsiyasi qoidalarini deyarli takrorladi. Shvetsiya va Daniya Rossiyadagi Avstriya-Vengriya va Kayzer Germaniyasi sub'ektlari manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmlariga oldilar. Gumanitar missiyalar muntazam ravishda Turkistondagi harbiy asirlar lagerlariga tashrif buyurishdi. Shunday qilib, 1916-yil mart oyida Toshkentga Shvetsiya Qizil Xoch jamiyatining Xokken fon Shulman boshchiligidagi delegatsiyasi, dekabrda esa Petrograddagi Daniya elchixonasi kotibi-delegati kapitan A. Brun keldi. Birinchi jahon urushi yillarida asirlar rus-afg'on, rus-fors chegaralari orqali Afg'oniston va Yeronga qochib o'tib, so'ngra o'z mamlakatlariga ketishmoqchi bo'lishgan. Ularda Afg'oniston va Yeron davlatlariga olib boruvchi maxsus xaritalar

bo'lgan. Biroq, Rossiya imperiyasi ayg' oqchiligi asirlarning Turkistondagi afg'on va fors fuqarolari bilan aloqalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, ularni chegarada imkon qadar ushlab turishgan. Asirlarni afg'on va fors hukumati o'z armiyasiga zobit, qo'riqchi hamda tibbiy xodim sifatida xizmat qilishga chorlagani manbalarda keltirilgan.

Arxiv manbalarida 1915-1916-yillarda birgina Chorjo'y shahrida rus harbiy qismlari 800 nafar harbiy asirni hibsdan saqlab turishgan. Ular 1915-yil noyabr - dekabr oylarida ikki bor qochib ketmoqchi bo'lganida, 2 nafari otib o'ldirilgan, 14 nafari ushlab olingan. Ikkinchi bor qochib ketgan 20 nafar asirdan 13 nafari ushlangan, 7 nafari qumlik orasida g'oyib bo'lgan. Harbiy asirlarni fors va afg'on fuqarolari bilan uchrashishiga yo'l qo'ymaslik, ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Yangi Chorjo'y harbiy garnizoniga 600 nafar qochoq bo'lgan sobiq asirlar ko'chirib olib kelingan. Xullas, Buxoro amirligi rus manzilgohlarida majburan ko'chirilgan va turli yumushlarga jalb etilgan, tutqunlikda saqlangan bo'lsada, Yevropa millatlarining vakillari ham ancha sonli bo'lib yashagan.

1917-yil boshiga kelib, mintaqada 41285 mahbus qolgan edi. shundan 37720 nafari Avstriya-Vengriya (36006 askar va 1714 ofitser). Turkistonda mahbuslar sonining kamayishining yana bir sababi bor edi – o'lim darajasi yuqori edi. F. Beylining yozishicha, 1914-yildan 1918-yil boshigacha Turkistonda 40-50 mingga yaqin harbiy asir halok bo'lgan. Bu hisob Sibir Sovet Yensiklopediyasida Turkiston 45 ming harbiy asirning qabriga aylangani haqidagi ma'lumotlarga to'g'ri keladi.

Mahbuslarni ro'yxatga olishda Rossiya harbiy ma'murlari, birinchi navbatda, ularning dushman qo'shinlaridan biriga va diniga tegishli ekanligini ta'kidladilar. Shuning uchun Turkistondagi mahbuslarning milliy tarkibini aniq belgilash juda qiyin. Gabsburg monarxiyasi harbiy asirlarining milliy tarkibi imperiyaning o'zi kabi xilma-xil edi. Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Vengriya Qurolli Kuchlarida faol harbiy xizmatda bo'lganlar orasida taxminan 25% avstriyaliklar va nemislar, 23 - vengerlar, 13 - cheklar, 4 - slovaklar, 9 - serblar va xorvatlar, 2-slovenlar, 3 - ukrainlar, 7 - ruminlar va 1% - italyanlar edi. Jahon urushi qiyinchiliklari, Rossiyadagi 1917-yil voqealari Turkiston, umuman, O'rta Osiyo xalqlari hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ularni moddiy jihatdan ta'minlash tub aholining zimmasiga tushgandi. Turkiston ma'muriyati rus aholini o'lkaga yoppasiga joylashtirishdan tashqari, rus armiyasiga yordam uchun mahalliy aholidan oziq-ovqat, arava, qo'y, ot, tuyalarni zo'rlab tortib olib, ilgari soliqlar miqdorini oshirdi, yangi soliqlarni, jumladan, harbiy soliqni joriy etdi.

1917-yil iyul-avgust oylarida Toshkent, Samarqand, Yangi Buxoro (Kogon) Qo'qon, Andijon va boshqa shaharlarda asosan yevropa millatiga mansub aholining miting va namoyishlari bo'ldi.

1917-yil 12-sentabrda Toshkentdagi Aleksandrovskiy bog'ida (hozirgi Temiryo'lchilar xiyoboni) 7 mingga yaqin namoyishchilar mitingga to'plandilar. Ular asosan yevropa millatiga mansub bo'lib, Toshkent temiryo'l va boshqa korxonalarining ishchilari, birinchi va ikkinchi Sibir polklarining askarlari edilar. Turkiston Okrugiga qo'mondoni Cherkes mitingni tarqatishga buyruq berdi. Ammo askarlar bu buyruqni bajarmadilar. Miting qatnashchilari 13 kishidan iborat bo'lgan.

O'lkada yuz bergan oziq-ovqat tansiqligidan bolsheviklar foydalanib, 1917-yil kuzida Sovetlar hokimiyatni qo'lga olishi masalasini ilgari surdilar. Ular ishchi va soldatlar boshdan kechirgan qiyinchiliklar, noroziliklarni o'z manfaatlariga qaratib bordilar. Bolsheviklarga boshqa so'l guruhlar, harbiy asirlar, frontdagi kommunistlar qo'shildilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asirga olingan nemis, avstro-venger askarlarini qirib o'ldirib yuborganda foyda yo'qligini bilgan rus vakillari ularni uzoq o'lkalarga surgun qilish eng to'g'ri qaror deb bildi. Buni amalga oshirish uchun katta kuch ham sarflanmadi. Shunchaki, "bo'lib tashla, hukmronlik qil" qabilasida ish qilindi. Mahalliy xalqlarni boshqarish uchun yuborilgan vakillarga asirlarni ham boshqarish vakolati yuklatildi. Ularning oziq-ovqat ta'minoti mahalliy aholi zimmasiga yuklatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Греков Н.В. Германские и австрийские пленные в Сибири (1914–1917) // Немцы. Россия. Сибирь. Сб. статей. Омск, 1997. С. 154.
2. Котюкова Т.В Положение военнопленных германской и австро-венгерской армий в Туркестане в 1914-1916 гг. (по материалам доклада генерала М. М. Манакина)-Санкт-Петербург -2002. С. 51.
3. Зиёев Х Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши йилларида Т., 2000. 12-бет.
4. Зиёев Х Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши йилларида Т., 2000. 12-бет.
5. Котюкова Т.В Положение военнопленных германской и австро-венгерской армий в Туркестане в 1914-1916 гг. (по материалам доклада генерала М. М. Манакина)-Санкт-Петербург -2002. С. 52.
6. Дорошенко Т. Положение военнопленных в Туркестане в годы первой мировой войны// вестник науки и образования № 10(113). часть 1. 2021.
7. Зиёев Х Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши йилларида Т., 2000. 15-бет.
8. Котюкова Т.В Положение военнопленных германской и австро-венгерской армий в Туркестане в 1914-1916 гг. (по материалам доклада генерала М. М. Манакина)-Санкт-Петербург -2002. С. 53.
9. Зиёев Х Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши йилларида Т., 2000. 21-бет.
10. Гоффоров Ш. Тарих ва тақдир Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар – Т., 2006.55-бет.

11. Гофоров Ш. Тарих ва тақдир Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар – Тошкент. Узбекистан Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашрнети -2006.135-бет.
12. Журбина Н.Е. Военнопленные Германии на территории России в годы Первой мировой войны (1914–1918 гг.) // Вестник ВГУ. Воронеж, 2008. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. № 2. С. 233.
13. Киреева Ю.В. Условия содержания немецких и австро-венгерских военнопленных на территории Туркестанского военного округа (1914–1917 гг.) // Военная история. Саратов: Саратовский военный институт ВВ МВД РФ, 2006. № 5 (23). С 112.
14. Котюкова Т.В. Положение военнопленных германской и австро-венгерской армий в Туркестане в 1914-1916 гг. (по материалам доклада генерала М. М. Манакина)-Санкт-Петербург -2002. С. 53.